

Respublika bolalar kutubxonasi

**Axborot-resurs markazlariga
uslubiy yordam ko'rsatish bo'limi**

**“TINCH VA OSUDA HAYOTIMIZNI
HIMOYA QILISH – MUQADDAS BURCH”
mavzusidagi 14-yanvar “Vatan
himoyachilari kuni”ga bag'ishlangan
uslubiy tavsiyanoma**

Toshkent-2016

Ushbu uslubiy tavsiyanoma axborot-resurs markazlariga uslubiy yordam ko‘rsatish bo‘limi tomonidan tayyorlandi.

Respublika bolalar kutubxonasi ilmiy-uslubiy kengashining yig‘ilishida 2016-yil ___-dekabrdagi ___-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlandi.

Nashrga tayyorladi:

Axborot-resurs markazlariga uslubiy yordam ko‘rsatish bo‘limi xodimlari

Ushbu tavsiyanomada O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning harbiy siyosatga doir nazariy qarashlari va yosh askarlarga o‘g‘itlari jamlangan.

Bundan tashqari mazkur uslubiy tavsiyanomada 14-yanvar – “Vatan himoyachilari kuni”ga bag‘ishlangan ssenariy taqdim etilgan. Tavsiyanoma ARM kutubxonachilari va maktab o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

KIRISH

Mamlakatimiz istiqboliga erishgan kundanoq O‘zbekiston milliy davlatchiligini, uning hududiy yaxlitligini, aholining tinch va osoyishta hayotini ta‘minlash davlat siyosatining bosh masalalaridan biriga aylandi. Sobiq ittifoq davrida adolatsiz siyosatni harbiy sohada ham yaqqol ko‘rish mumkin edi. Jumladan, O‘zbekistondan chaqiriluvchilarning aksariyat qismi o‘sha davrda asosiy muloqot tili bo‘lgan “rus-tilini bilmaydi”, “jismoniy jihatdan rivojlanmagan”, “bilim darajasi past”, “texnikani o‘zlashtira olmagan” degan asossiz bahonalar bilan ularni aksariyat hollarda ta‘minot, qurilish hamda ikkinchi darajali vazifalarga yuborilar edi.

Mamlakat xavfsizligining keng qamrovli konsepsiyasi ishlab chiqildi, uning huquqiy asosi yaratildi. Bu yo‘lda, avvalambor, 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni mudofaa tizimini vujudga keltirishda mamlakat harbiy siyosatining belgilanishi, 1996-yil 24-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining beshinchi sessiyasida ma‘qullangan “Milliy xavsizlik to‘g‘risida”gi qonun, 1997-yil avgust oyida Oliy Majlis IX sessiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 31-avgustda bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari o‘n ikkinchi sessiyasida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi bayonotida “Davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi va erkinligini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi va Milliy gvardiya tuziladi, respublika hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligi, SSSR Davlat xavfsizlik komiteti hamda Ichki qo‘shinlar O‘zbekiston Respublikasi yuridiksiyasiga olinadi” deb ko‘rsatildi. Bu 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida”gi qonunda huquqiy jihatdan mustahkamlandi va uning 6-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmatni tashkil etish huquqiga ega” deb mustahkamlandi. Bu amalda yosh respublikaga o‘z harbiy siyosatini balgilash va amalga oshirishning huquqiy asosini yaratib, Qurolli Kuchlarini tuzishga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi masalalari bo‘yicha” Qarori asosida mamlakat Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi va uning Nizomi hamda tashkiliy-shtat tuzilishi tasdiqlandi.

Vazirlik mahalliy harbiy boshqaruv organlari, fuqarolar mudofaasi shtabi va armiya safidan tashqaridagi xizmatning maxsus boshqarmasi negizida tashkil qilindi. Keyinchalik Turkiston harbiy okrugining boshqaruv organlari negizida Mudofaa ishlari vazirligi Bosh shtabi va boshqarmasi hamda ularning joylardagi quyi bo‘linmalari tuzildi.

1991-yil 30-dekabr kuni Minsk shahrida MDH davlat rahbarlarining yig‘ilishida harbiy masala ko‘tarildi va unda O‘zbekiston Respublikasi birinchilardan bo‘lib o‘z Qurolli Kuchlarini tuzajagini bildirdi. Kengashda Qurolli Kuchlar va Chegara qo‘shinlari to‘g‘risidagi bitim qabul qilindi. Hamdo‘stlik qatnashchilar bo‘lgan davlatlar o‘z qurolli kuchlarini tuzishlarini tasdiqladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992-yil 10-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining harbiy qismlari va o‘quv muassasalarini O‘zbekiston Respublikasi tasarrufidagi olish to‘g‘risida”gi va 14-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o‘quv muassasalari to‘g‘risida”gi qarorlar qabul qilindi. Ushbu qarorlarga muvofiq, sobiq SSSR Qurolli Kuchlarining respublika hududida joylashgan qismlari, birlashmalari, harbiy o‘quv yurtlari, muassasalari, tashkilotlari va boshqa harbiy tuzilmalari qonuniy asosda O‘zbekiston

Respublikasi yustdiksiyasiga olindi. Mazkur qaror qabul qilingan kun – 14-yanvar. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 29-dekabrdagi Qonuniga muvofiq “Vatan himoyachilari kuni” deb e’lon qilindi.

Mana 24 yildirki ushbu kun yurtimizda keng miqyosda nishonlanib kelinadi.

VATAN HIMOIYACHILARI HAQIDA FIKRLAR

Mard va jasur o'g'lonlar oilamiz, el-yurtimiz, sarhadlarimiz tinchligi va daxlsizligini ko'z qorachig'idek asrab keladi.

(Islom Karimov)

Faqat zamonaviy talabga javob beradigan, harakatchan, yaxshi tashkil etilgan, zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan jihozlangan milliy armiyani shakllantirish o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishish, yurtimiz tinchligi, xavfsizligi va osoyishtaligini saqlash, sarhadlarimizning hududiy yaxlitligi va daxlsizligini ta'minlashi mumkin.

(Islom Karimov)

“Milliy armiyamiz mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir”

(Islom Karimov)

Elga xizmat mehri yonar mangu dilimda,
Quyosh kabi so'nmas aslo xalqim sevgisi!

Normurod Narzullayev

O'ZEK XALQ MAQOLLARI

Bulbul chamanni sevar,

Odam – Vatanni.

Ona yurting omon bo'lsa,

Rangi ro'ying somon bo'lmas.

El ishini er qilur,

Er qadrini el bilur.

Er yigit o'zi uchun tug'ilar,

Eli uchun o'lar.

Tinchlik – baxt, sog'liq – taxt.

Jasur bo'lsang, yov qaytar.

Yigitning botirini maydonda sina,

Vatani borning baxti bor

Yigit g'ami elida,

Elning g'ami dilida

Tugʻilgan yering – Vatanning,
Vatanning – nomusing.

El qudrati – chin qudrat,
Vatan tuprogʻi –qimmat

El kuyunganda kuyungan – botir
El suyunganda suyungan – botir.

Yigit soʻzidan, arslon izidan qaytmas.

Yaxshi oʻgil yurt tuzar,
Yomon oʻgʻil yurt buzar.

MUHIM SANALAR

1991-yil 6-sentabr – “Mudofaa ishlari vazirligi” tashkil etildi.

1991-yil 25-oktabr – “Mudofaa ishlari vazirligining huquqiy maqomi, tuzilishi va nizom”lari tasdiqlandi.

1992-yil 14-yanvar – “Vatan himoyachilari kuni” deb e’lon qilindi.

1992-yil 3-iyul – “Mudofaa ishlari vazirligi “Mudofaa vazirligi”ga aylantirildi.

1992-yil 24-mart – “O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Chegara qo‘shinlari bo‘linmalari haqida“gi farmoni bilan Respublika Milliy Xavfsizlik Xizmati qoshida “Chegara qo‘shinlari boshqarmasi” tashkil etildi.

1993-yil 22-noyabr –“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qismining Jangovar bayrog‘i to‘g‘risida“gi Prezident farmoni imzolandi.

1993-yil 29-dekabr – 14-yanvar yurtimizda “Vatan himoyachilari kuni” deb e’lon qilindi.

1999-yil 13-yanvar – Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo‘mita tuzildi.

**“MAQSADIMIZ – TINCHLIK,
BARQARORLIK, HAMKORLIK”
deb nomlangan kitob ko‘rgazmasi uchun
tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ahmedov M. Armiya – davlat tayanchi, tinchlik kafolati. –T.: Sharq, 2004.

2. Buyuk kelajak manzaralari. –T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.

3. Erkayev A. O‘zbekiston yo‘li. – T.: Ma’naviyat, 2011.

4. Karimov I. O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘lida. –T.: O‘zbekiston, 2006.

5. Karimov I. Vatanimiz bosqichqma-boshqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning maqsadimiz. –T.: O‘zbekiston, 2009.

6. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2010.

7. Karimov I. O‘zbekiston mustaqillika erishish ostonasida. –T.: O‘zbekiston, 2012.

8. Karimov N. Ma’naviyat – qalb quyoshi. Ma’lumotnoma –T.: O‘qituvchi, 2013.

9. Quronov M. Ezgu g‘oyalar ro‘yobi. –T.: Ma’naviyat, 2011.

10. Quronov M. Istiqlol dilimda, tilimda. –T.: Ma’naviyat, 2011.

11. Ro‘zinazarov Sh. O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari. –T.: Adolat, 2001.

12. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2015.

**“MAQSADIMIZ – TINCHLIK,
BARQARORLIK, HAMKORLIK”**

**deb nomlangan 14-yanvar “Vatan himoyachilari
kuni”ga bag‘ishlangan bayram ssenariysi**

(Sahna harbiy jihozlar bilan bayramona bezatilgan. Zalning to‘rida vatan himoyachilari, botir askarlarimiz, qurolli kuchlar aks etgan sur‘atlar, mard va jasur o‘g‘lonlar ona yurt tayanchi ekanligi e‘tirof etilgan vatanparvarlik ruhidagi shiorlar, hikmatli so‘zlar, hadislardan namunalar yozilgan plakatlar osilgan.

Vatan tuyg‘usi, Vatan xavfsizligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta‘minlayotgan himoyachilarimizni madh etuvchi vatanparvarlik ruhidagi yuksak san‘at asarlarini hamda yangilangan mustahkam armiyamiz faoliyatini ifoda etuvchi chiqishlar va sahna ko‘rinishlarini namoyish qilish va bu orqali yosh avlod qalbida havas, iftixor, ona vatanimizga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otish ushbu bayram dasturining g‘oyasidir.

Sahnada davlat madhiyasi yangraydi. Barcha jo‘r bo‘lib ijro etadi.)

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

*(O‘quvchilar ona vatanni, istiqlolni sharaflab she’rlar
aytadilar.)*

1-boshlovchi: Birida bolangman, birida bolamsan,
Gohida alla-yu, gohi alamsan.
Otamday sog'inib, bolamday suyib,
Kunimga kuyganim-munis onamsan.
Har lahza keragim-korimsan, Vatan.

2-boshlovchi: Qulamas devorsan, otam tiklagan
Tugamas duosan, onam tilagan.
Tebratgan beshigim, yotgan beshigim,
Sen nursan, jonimni o'tga o'ragan.
Sig'ingan mehrobim, to'rimsan, Vatan.

Tiriklar ko'milmas, mukarram tuproq,
Yaxshilar yo'lida so'nmagan chiroq.
Ko'rkli, ko'kingdagi lochin bolangman,
Yo'lagan quzg'unga solaman titroq.
Yuksak cho'qqidagi qorimsan, Vatan.

1-boshlovchi: Seni beshik dedim, men bedor dedim,
Yovga xiyonat-u, mardga or dedim.
Kaftimda cho'g' tutib, hayqurgim bugun,
Bo'lsa senday makon bitta bor dedim.
Jannatim iymonim, borimsan, Vatan.

(So‘ng mayin musiqa sadolari ostida ikki boshlovchi sahnaga chiqishadi. Qo‘llari ko‘ksida, barcha bilan ta‘zim ila salomlashadi.)

2-boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz ustozlar, qadrli o‘quvchilar!

Bugungi Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan tadbirimizga, xush kelibsiz.

1-boshlovchi: Xush kelibsiz! Ustoz-murabbiylar, qadrli o‘quvchilar! Barchangizni ushbu bayram bilan tabriklaymiz.

2-boshlovchi: Tadbirimizni ochib berish uchun so‘zni maktabimizning kutubxonachisi _____ga beramiz.

Maktab kutubxonachisining nutqi: Bu yorug‘ olamda ona Vatanni himoya qilishdan muqaddasroq burch, xalq osoyishtaligini qo‘riqlashdan ham ezguroq yumush yo‘qdir.

Jahonga ne-ne betakror alloma-yu shoirlarni yetishtirib bergan xalqimiz o‘zining mashaqqatlarga to‘la tarixi davomida benazir sarkardalarni ham voyaga yetkazdi. Yurtimizni bosqinchilardan muhofaza qilish kabi olijanob maqsad yo‘lida

mardonavor qo‘shinlar shakllandi. Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari jasur lashkarboshilarning nomlari minnatdor xalqimiz yuragidan abadiy joy oldi. Ayniqsa, dunyoda birinchi muntazam armiya tuzgan Sohibqiron bobomiz Amir Temurning harbiy dahosi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu zotning harb ilmidagi betakror zakovati hanuzgacha jahon sarkardalari uchun saboq maktabi bo‘lib kelmoqda. Amir Temur o‘z jangovar harakatlarini doimo bunyodkorlik bilan bog‘liq holda olib borgan. Chunonchi, Sohibqiron: «Qaydankim bir g‘isht olgan bo‘lsam, o‘rniga o‘n g‘isht tikladim», deganlar.

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, hech shubhasiz, Vatan va istiqlolni himoya qilish uchun mustaqil armiya tuzish zarurati tug‘ilgan edi. Mustaqil diyorimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida O‘zbekistonning yangi, milliy armiyasi shakllandi va u kundan-kunga takomillashib borayotir. Bizning armiyamiz jahondagi eng yetuk armiyalarning tajribalarini o‘rgangan holda zamon talabiga mos professional qo‘shin sifatida shakllanmoqda.

1-boshlovchi: O‘zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlari tashkil topgan kun mustaqil diyorimiz tinchligi va osoyishtaligi posbonlari, muqaddas Vatanimiz tuprog‘ini ko‘zlariga to‘tiyo aylaguvchi bahodir askar o‘g‘lonlarning bayramidir.

2-boshlovchi: Mamlakatimiz hayotidagi qutlug‘ sana – Vatan himoyachilari kuni va Qurolli kuchlarimiz tashkil etilganining 24 yilligi bilan chin qalbdan barchangizni tabriklaymiz.

1-boshlovchi: Dunyoda «Vatan» so‘zidan aziz va yurakka yaqin kalom topilmagani kabi, Vatan himoyachisi bo‘lishdan ortiq shon-sharaf ham yo‘qdir. Mazkur tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, asrlar osha ajdodlarimiz o‘gitlarida, xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlarida yashab kelmoqda.

2-boshlovchi: Mana, 24 yildirki, mamlakatimiz Vatan himoyachilari kuni milliy bayram sifatida nishonlamoqda. Bu bayram el-yurtga sadoqat bayramidir. Bu bayram o‘z mohiyat-e‘tibori bilan avlodlar o‘rtasidagi uzviylikni, O‘zbekiston ahlining jangovar soha namoyondalariga bo‘lgan chuqur ehtiromini aks ettiradi.

1-boshlovchi: O‘tgan yillar mobaynida Qurolli Kuchlarimiz yoshlarni ham jismonan, ham ma’naviy jihatdan tarbiyalaydigan, chiniqtiradigan haqiqiy jangovar mahorat

maktabiga aylandi. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda mavqeyi yanada ortdi.

2-boshlovchi: Vatan himoyachisi deganda xalqimiz ko'z o'ngida, eng avvalo, qomatiga harbiy libos yarashgan, tug'ilgan yurti va oq sut bergan xalqini jondan sevuvchi, zamonaviy harbiy bilim va ko'nikmalarga ega, tinchlik va barqarorlikni saqlashdek oliyjanob maqsad yo'lida har qanday jasoratga tayyor mard va botir o'g'lonlar namoyon bo'ladi.

1-boshlovchi: Ko'zingizning qarosiday saqlagaysiz,
Yurt ishonchin iymon qadar oqlagaysiz,
Qo'riqlaysiz shom-u sahar dilda Vatan
Nomus-ori, e'tiqodi but askar.

2-boshlovchi: Karvonboshi suyangaydir Siz – mardlarga,
Siz bermaysiz elingizni «chang-gard»larga.
Yov kelsa gar olishasiz kechib jondan,
Siz jasursiz hamda mag'rursiz askar.

1-boshlovchi: Siz Vatanga yarashgaysiz, olgumdir tan,
Vatan sizga yarashgaymi yo askar?
Qiziqtirmas o'zga narsa, yo gulbadan,

Orzuangiz omon bo'lsa bo'ldi Vatan.

2-boshlovchi: Siz shu yurtning ahdi baland o'g'lonisiz,
Siz borsiz-ki, behavotir qo'rg'onimiz.
Faxrlangum goh oshkora, goho chetdan –
Siz borsiz-ki, hadigimiz yo'q askar!.

**(Bo'lajak askarlar bolalar shoiri Aziz Abdurazzoqning
«Askar-askar o'ynaymiz» qo'shig'ini ijro etadilar.)**

Yakka ovoz: Askar-askar o'ynaymiz,

Qolganlar: Biz askar, Biz askar.

Yakka ovoz: Askar-askar o'ynaymiz,

Qolganlar: Siz askar, Siz askar.

Yakka ovoz: Ikki tomon saf tortib,

Qolganlar: O'ynaymiz, o'ynaymiz.

Yakka ovoz: O'q otishga yo'l bo'lsin,

Qolganlar: Qo'ymaymiz, qo'ymaymiz.

Yakka ovoz: Biz ham kichik qo'riqchi,

Qolganlar: Askarmiz, askarmiz.

Yakka ovoz: Yurtimizni tinch, omon

Qolganlar: Asraymiz, asraymiz.

(Qo‘shiq tugagach, yana jangovor buyruqlar yangrab, yosh posbonlar shaxdam qadamlar bilan sahnadan chiqib ketishadi. Sahnaga boshlovchilar chiqadi.)

1-o‘quvchi: Onamga o‘xshaydi mening Vatanim,
Onamday mehribon, onamday xokisor.
Holbuki, qizi bor yengilmas g‘anim,
Holbuki, o‘g‘li bor chaqmoqdek shunqor.
Chunki dunyo ko‘rgan, ko‘rgisi kelmas,
Qushning inini ham buzgisi kelmas.

2-o‘quvchi: Zamin qanday ulug‘, zamin behudud,
Kimlar chumolidir, kimlar shilliqurt.
Bolam, buyurmasin o‘zgaga, deydi,
Hammaning o‘ziga nasib etgan yurt.
Chunki dunyo ko‘rgan, ko‘rgisi kelmas,
Qushning inini ham buzgisi kelmas.

3-o‘quvchi: O‘zi ham bilmaydi qay biri mashhur:
Bir o‘g‘li Yassaviy, bir o‘g‘li Temur.
Olis ufqlarga ko‘z tikib tolg‘in,
Mard bo‘lsang uy qurma deydi, davlat qur.

Chunki dunyo ko‘rgan, ko‘rgisi kelmas,
Qushning inini ham buzgisi kelmas.

4-o‘quvchi: Ajdod surishtirib loflar urmagan,
Onam panjasiga panja urmagan.
O‘zining bolasin avaylab-asrab,
O‘zgaga yomonlik ravo ko‘rmagan.
Chunki dunyo ko‘rgan, ko‘rgisi kelmas,
Qushning inini ham buzgisi kelmas.

*(She‘r o‘qilgandan so‘ng sahnaga yana o‘quvchilar
chiqishadi va mayin musiqa sadolari ostida vatan haqida
maqollar aytishadi.)*

1-o‘quvchi: Ona yurtning – oltin beshigin.

2-o‘quvchi: Qayin daraxtining egilgani – singani,
Er-yigitning uyalgani – o‘lgani.

3-o‘quvchi: Nolish bilan ish bitmaydi,
Mard nomardga tiz cho‘kmaydi.

4-o‘quvchi: Mard yo‘lida g‘ov qolmas

(Shundan so‘ng sahnada harbiycha kiyingan o‘quvchilar buyruqqa mos harakat qiladilar.)

«To‘xta!» degan buyruqomuz ovoz eshitiladi. Ular turgan joyida uch marta deysinib, keyin to‘xtashadi. «Sahnaga yuzlanib, o‘ngga buril!» degan buyruq beriladi. Keyin «Uch qadam orqaga!» degan ovoz yangraydi. Hamma buyruqqa mos ravishda orqaga tisarilib, sahnaga yuzlanib tizilib turishadi.

Harbiycha harakatlar tugagach, yana jangovor buyruqlar yangrab, yosh posbonlar shaxdam qadamlar bilan sahnadan chiqib ketishadi. Sahnaga boshlovchilar chiqadi va “kim epchil-u, kim chaqqon” musobaqasini boshlashadi. Musobaqa vaqtida Avaz Mansurovning «Kim epchil-u, kim chaqqon» qo‘shig‘i yangraydi.

(So‘ng yuqori sinf o‘quvchilari ishtirokida kichik sahna ko‘rinishi ijro etiladi.)

Sahnaga yelkasiga yuk xalta ilib olgan sport kiyimidagi o‘smir yigit va boshiga oq ro‘mol tashlagan onaxon birga yetaklashib chiqib kelishadi.)

Ona: O‘sib-ulg‘ayib, hash-pash deguncha Vatan koriga, el xizmatiga yaraydigan yigit bo‘lib yetilganingni sezmay qolibman.

O‘g‘il: O‘zimning, mehribon oyijonim. Baxtinga siz, dadam, ukalarim omon bo‘lsanglar, menga shuning o‘zi yetadi. Mendan sira xavotir olmanglar.

Ona: O‘g‘lim, bilsang, harbiyda xizmat qilish hammaga ham nasib etavermaydi. Komandirlaringdan biri aytdi, chaqiriq yoshidagi yigitlarning hammasi ham test sinovlaridan o‘ta olishmas ekan. Har o‘ntasidan bittasi muddatli harbiy xizmatga jo‘natilayotgan ekan. Men sen bilan faxrlanaman.

O‘g‘il: Oyijonim, men sizning yuzingizni yerga qaratmayman. «Vatan himoyachisi» degan nomga sodiq bo‘lib, xalqimizga, yurtimizga sidqidildan xizmat qilaman. Axir Vatanni mardlar qo‘riqlaydi-ku.

Ona: Rahmat, bolajonim! Oy borib, omon qayt! Yaxshi xizmat qilib, bergan tuzimni oqla. Biz seni kutamiz.

O'g'il: Xayr, onajon! Albatta, avvalo Vatanimga, keyin sizga munosib o'g'lon bo'laman. *(Keyin sahnaga yuzlanib)* Aziz ukalarim! Yaxshi o'qib, a'lo bilim oling! Sport bilan ko'proq va astoydil shug'ullaning! Ana shundagina qaddi-qomatingizni ko'rganda hammaning havasi keladigan sog'lom va baquvvat, gap-so'zlari bama'ni, Alpomish kelbat mard o'g'lonlar bo'lib ulg'ayasiz. Vatanga axir nimjon, kasalmand yigitlar emas, mard-u maydonlar kerak!

(Sahna ko'rinishi tugagach, bo'lajak askar-bolalari Avaz Mansurovning «Chegarachi bola» qo'shig'ini harbiycha harakatlar ostida ijro etishadi. Qo'shiqdan so'ng musobaqa tashkil etiladi.)

Musobaqada ishtirok etish uchun zaldan 2 nafar yigit sahnaga taklif etiladi. Ularga 2 dona qoshiq va 2 dona tuxum beriladi. Ishtirokchilardan tuxumni qoshiqqa qo'ygan holda tushurib yubormasdan ma'lum bir masofani bosib o'tish kerakligi aytiladi. Kim birinchi bo'lib belgilangan masofani bosib o'tsa, g'olib deb topiladi. G'olibga esdalik sifatida kitob sovg'a qilinadi.

1-boshlovchi: Yerda ham til bordir,
Tunlar qovushib,
Dilga aylanadir yaxlit jon va tan.
Ellikqal'alardan kelsa tovushing,
Tovushlaring kelsa Tuproqqal'adan.

2-boshlovchi: Tuproqqal'alardan kelar tovushing,
Tovushlaring kelar Ellikqal'adan.
Men ham bir qo'rg'onday ketgum qorishib
Ulug' qo'rg'onlardan yaralgan Vatan!

1-boshlovchi: Mana, bayram tadbirimiz ham nihoyasiga yetib boryapti, barchalaringizni mamlakatimiz hayotidagi qutlug' sanasi – Vatan himoyachilari kuni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 24 yilligi bilan chin qalbimizdan yana bir bor muborakbod etamiz.

2-boshlovchi: Sizlarga sihat-salomatlik, baxt-saodat, yaxshi kayfiyat, o'qish va ishlaringizda omad yor bo'lishini tilaymiz.

1-boshlovchi: Xonadonlaringizdan fayz-u baraka arimasin!
Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov M.A. Armiya – davlat tayanchi, tinchlik kafolati. – T., 2004.
2. Karimov I. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarilish sari. –T., 2010.
3. Sayyid S. So‘z yo‘li. –T., 2008.
4. Yusuf M. Yolg‘onchi yor. –T., 2015.